



KELAJAK POYDEVORI UCHUN XORIJIY TILLARNI TAKOMILLASHTIRISH.

Maxmudova Maxarram Sharof qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Fizika va texnologik ta'lim fakulteti

Texnologik ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi.

Annontatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarini takomillashtirish to'g'risida g'oyalar hamda yosh avlod uchun kelajak poydevori sifatida samarali metodlarva uning sifatini oshirishdagi o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Til, Prezidentning xorijiy tilni samaradorligi qarori, el- yurt umidi jamg'armasi, Nyurnberg univesiteti tavsiyalari, multimediali vositalar, zamonaviy texnologiya.

Mamlakatimizda har yili ilm-fanning bir nechta yo'nalishi tanlab olinib, alohida e'tibor bilan rivojlantirilmoqda. Chet tillari ana shunday ustuvor sohalar etib belgilangan. Joriy yilda „EL-YURT UMIDI“ jamg'armasi orqali 350 nafar talabaning nufuzli xorijiy universitetlarda o'qishi uchun stipendiyalar ajratildi. Bugungi kunda jahondagi juda ko'plab mamlakatimizda o'z ona tillaridan tashqari bir qancha chet tillarni o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Bu bejiz emas albatta chunki boshqa xalqlarning urf-odatlar, turmush tarzi, umuman olganda o'sha xalq qalbini bilish uchun avvalo o'sha xalqning tilini bilish lozim. Mamlakatimizda ham bu borada qator islahotlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda chet tillarini o'rganishga qaratilgan chora tadbirlar bejiz bo'layotgani yo'q. Chunki boshqa tillarni bilishga ehtiyoj bugundan paydo bo'lib qolmasdan balki uzoq o'tmishimizdan ham katta ahamiyatga ega. Mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy salohiyati va uning xalqaro miqyosidagi munosabatlari hamda hududiy va global tarmoqqa aloqadorlik darajasi xorijiy tillarni o'qitish masalalariga hamda ularning o'rganish ketma-ketlik tartibiga ham ta'sir etadi. Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida birinchi chet tili sifatida ko'pincha foydalilik mezon bo'yicha eng muhim bo'lgan til ustuvor hisoblanadi-bugungi kunda ingliz tili dunyoni egallab bormoqda.

Barchamizga ma'lumki, til o'zaro muomala, aloqa vositasi, tafakkur qirolidir. Dunyo xalqlari uchun o'z ona tili ularning bebaho qadriyati millatning g'ururi. O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularning zamonaviy bilim va kasb hunarlarini puxta egallashi borasida barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.

Yevropadagi kabi „yevropacha ko'p tillilik“, tushunchasi ostida kamida ikkita zamonaviy xorijiy tilni egallash maqsadida qilinsa, unda navbatdagi chet tillarni o'rganish uchun birinchi chet tilining ahamiyatiga yanada ko'proq e'tibor berilishi lozim. Bu ayniqsa, bolalar bog'chalari, tayyorlov maktablari yoki boshlang'ich maktablarda birinchi chet tilini o'qitish uchun muhim sanaladi, chunki birinchi chet tili navbatdagi xorijiy tillarni o'rganishiga yo'l ochib berishi lozim. Ota onalar ko'p



hollarda ingliz tilini o'rganish oson, u global aloqa vositasi sifatida farzandlarning kelajakda o'qish va kasb sohalarda martabaga erishish uchun yaxshi zamin yaratadi deb ishonganlari uchun uni birinchi chet tili sifatida o'qitilishini talab qiladilar. Biroq, ular ingliz tilidan tashqari butunlay boshqa tillar keng foydalaniladigan hududlarda jamiyatning o'zgaruvchanligi va tezkorligi hududiy ehtiyojlaridan kelib chiqib ingliz tili birinchi chet tili sifatida boshqa chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi to'g'risida mulohaza qilib ko'rmaydilar. Ammo aksincha chet tillarini o'rganishni boshlashda boshqa bir chet tili bolalariga mos va uzluksiz tarzda o'rgatilsa mazkur chet tiliga va til o'rgatilayotgan mamlakatning madaniyatiga nisbatan shakllanadi. Bunday holatda ingliz tili ma'lum bir vaqt o'tib, chamasi uch yoki to'rt yillardan keyin, tez suratlarda o'rganilishi mumkin, shunda ingliz tili bo'yicha kutilgan bilim darajasi bosqichiga erishishga hech qanday putur yetmaydi. Til siyosati nuqtai nazaridan qaraganda hududiy ko'p tillilik konsepsiyasi tillarni tanlash va ularni o'rganish ketma-ketligi to'g'risida turlicha mulohaza yuritishga imkon beradi. Bolaning individual muloqot yuritish va bilim olishiga bo'lgan ehtiyojlarini jumladan uning kelajakdagi shaxsiy va kasbiy intilishlari diqqat markazida turadi. Bundan kelib chiqadiki bolalarda hududiy jihatdan muhim bo'lgan ko'p tillilik profilillarini rivojlantirish uchun chet tili darslarini va tillar ketma-ketligini ko'p qirrali va o'zgaruvchan qilib tashkil etish zaruriyati tig'iladi.

TAVSIYALAR;

O'rganish uchun taklif etiladigan chet tillari bolalarga tanlash imkonini berish uchun turli xil bo'lishi lozim.

Tillar ketma-ketligi individual va hududiy ko'p tillilikni inobatga olgan holda o'zgaruvchan bo'lishi lozim.

Birinchi chet tili uzluksiz o'rgatib borilishi lozim.

Jamoatchilik bilan ishlash orqali, ayniqsa ota-onalar chet tillar ketma ketligining til o'rganish jarayoniga ta'siri to'g'risida to'liq xabardor bo'lishi lozim.

Agar ingliz tili birinchi chet tili bo'lsa, u navbatdagi chet tillarini o'rganish uchun alohida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi hamda boshqa tillarni o'rganish uchun zamin yaratishi lozim.

Prezident tomonidan farmoniga binoan „O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida”gi PQ 5117 – son qarori imzolandi.

-umumiy o'rta, o'rta maxsus, va professional ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o'qituvchilariga Davlat byujetidan zamonaviy adabiyot, darslik o'quv qo'llanmalar sotib olishi uchun 1 mln so'mdan mablag'lar ajratildi;

-umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida xorijiy tilde mutaxassislik fanlaridan dars beradigan B2 va undan yuqori darajadagi xalqaro sertifikatga ega o'qituvchilarga qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan ustamalar tatbiq etiladi; va boshqalar.



Chet tillarini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashdan asosiy maqsad fanni oson o'zlashtirishga ko'maklashish hisoblanadi. Bunda ma'lum bir manbani eshitib tushunish, uni nutqda ifodalash, o'qib tushunish hamda yozma tarzda ifodalash muhimdir. Zamonaviy texnologiyalarda pedagogik jarayon o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida oshirilishi muhim omil sanaladi. Bu usul ishni samaradorligini yaxshilashga yordam beradi. O'qituvchilar bo'sh va ijodiy vaqtni o'zini rivojlantirishga sarflashi mumkin. Bugungi kunda zamonaviy yondashuvlarning eng keng tarqalgan usuli asosan darsda multimedialardan foydalanishdir. Chet tillari o'qituvchilarining multimediali ishlari haqiqiy virtual maydonda uzoq vaqt qolishiga to'g'ri keladi, muloqot jarayonini o'rganishni yengillashtiradi, bunda multimediali manba qiziqarli bo'lsa uni o'rganish ham oson bo'ladi. Chet tilini kompyuter orqali o'rgatishning an'anaviy usullari bor. O'quvchi kompyuter yordamida tilning to'rt ko'nikmasi asosida shakllanib boradi. Hozirgi kunda til o'rganish uchun nafaqat pullik kurslar balki internet vositasi orqali har xil turdagi tilni o'rgatish dasturlari ishlab chiqilib yosh avlodlarga ko'nikma natijasida bilim olishga yordam berib kelmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, axborot texnologiyalari tarqqiy etgan davrda yashayapmiz, ushbu qulayliklardan oqilona foydalangan holda chet tillarini barcha uchun tushunarli tarzda o'rganish va o'rgatish lozim. Demak texnologiyalarni joriy qilish o'qitish uslublarini davr talablariga javob berishini ta'minlash asosiy vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xorijiy Universitetlarning Nyurenberg tavsiyalari.
2. Prezidentimiz SH. Mirziyoyev tasdiqlagan qarorlari.
3. Jo'raboyev B B O 2020 yil Chet tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv.
4. Maxmudov Q 2020 yil O'zbek xorijiy tillar tasnifi.
5. Jalilov J. Toshkent 2012 yil Chet tili o'qitish metodikasi.
6. Otaboyev M. Elektoniy 2017 yil Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishva uning samaradorligi.